

“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Sport vazirligi huzuridagi
Jamoatchilik kengashi raisi



Sh.R. Tashmatov

“ ” avgust 2026 yil

O‘zbekiston respublikasi sport vazirligi huzuridagi
jamoatchilik kengashi yig‘ilishining
5 – son bayoni

2026 yil “3” avgust

Toshkent shahri

raislik qiluvchi:

Sh.R. Tashmatov – O‘zbekiston milliy olimpiya
qo‘mitasi raisi o‘rinbosari, jamoatchilik kengashi
raisi

qatnashdilar:

vazirlik huzuridagi jamoatchilik kengashi a‘zolari,
sport vazirligi markaziy apparati boshqarma va
bo‘lim boshliqlari (ro‘yxat bo‘yicha)

kun tartibi:

bolalar o‘rtasida suzish ko‘nikmalarini rivojlantirish
va suv havzalarida xavfsizlikni ta‘minlash
chora-tadbirlari to‘g‘risida

(Tashmatov, Maxsitov, Hamraev, Sattarov, ..., Tashmatov)

Bugungi kunda aholi, ayniqsa yoshlar o‘rtasida suvda xavfsizlik qoidalariga rioya etish va xavfli vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlar muntazam amalga oshirilayotganiga qaramasdan, suv havzalarida xavfsizlik madaniyatining yetarli darajada shakllanmaganligi oqibatida cho‘kish holatlari hanuz kuzatilayotganligi ta‘kidlab o‘tildi.

Shuningdek, respublikadagi cho‘milish uchun mo‘ljallangan 225 ta basseynlarning texnik holati o‘rganilganda, ularning 47 tasi foydalanishga yaroqsizligi aniqlangan.

Joriy yilda suv ob'ektlarida aholi xavfsizligini ta'minlash maqsadida **4 701 ta** o'rganish o'tkazilib, **993 ta** taqiqlovchi va ogohlantiruvchi belgilar o'rnatildi, **18 ta** mavsumiy qutqaruv postlari tashkil etildi. Shuningdek, **218 428 nafar** fuqaro, shu jumladan **67 214 nafar** voyaga yetmagan yoshlar bilan suvda xavfsizlik qoidalariga rioya etish yuzasidan tushuntirish ishlari olib borildi.

Amalga oshirilgan profilaktik va tushuntirish ishlariga qaramasdan, joriy yilning **6 oyida 46 ta** holatda **51 nafar fuqaro**, shundan **18 nafari voyaga yetmaganlar** suvda cho'kib vafot etganligi ma'lum qilindi.

Qayd etildiki, so'nggi **5 yilda** mamlakatda suvda cho'kish bilan bog'liq **835 ta** baxtsiz hodisa oqibatida **904 nafar** fuqaro, shu jumladan **365 nafar voyaga yetmagan yoshlar** halok bo'lgan. Cho'kish holatlarining asosiy qismi kanallar, daryo-soylar va boshqa suv ob'ektlarida, ularning aksariyati esa cho'milish taqiqlangan joylarda sodir bo'layotganligi qayd etildi.

Cho'kish bilan bog'liq holatlarning **89 foizi** taqiqlangan joylarda cho'milish oqibatida yuzaga kelgani, halok bo'lganlarning **40 foizini voyaga yetmaganlar** tashkil etgani, shuningdek, bolalar o'rtasida suzish ko'nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganligi mazkur yo'nalishda profilaktik chora-tadbirlarni yanada kuchaytirish zarurligini ko'rsatishi ta'kidlandi.

Shu munosabat bilan bolalar o'rtasida suzish ko'nikmalarini rivojlantirish, ularga suvda xavfsiz harakatlanish qoidalarini o'rgatish, suv havzalarida baxtsiz hodisalarning oldini olish hamda mazkur yo'nalishda davlat organlari, ta'lim muassasalari va boshqa mas'ul tashkilotlarning hamkorligini tizimli tashkil etishga qaratilgan **normativ-huquqiy hujjat loyihasini** ishlab chiqish zarurati jamoatchilik kengashi a'zolari tomonidan muhokama qilindi.

Muhokama davomida **bolalar, ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilari** o'rtasida suzish ko'nikmalarini shakllantirish va suvda xavfsizlik madaniyatini oshirish maqsadida **umumta'lim maktablarida "suvda xavfsizlik madaniyati"** o'quv dasturini joriy etish, shuningdek, o'quvchilar uchun qo'shimcha suzish mashg'ulotlarini tashkil etish zarurligi ta'kidlandi.

Shu bilan birga, suv ob'ektlarini xatlovdan o'tkazish, ularni xavf darajasiga ko'ra toifalash, xavfsiz cho'milish hududlarini tashkil etish va qutqaruv infratuzilmasini kuchaytirish zarurligi qayd etildi.

Bundan tashqari, cho'kish holatlarini doimiy monitoring qilish, xavfli hududlarda profilaktik tadbirlarni kuchaytirish hamda bolalarda suzish va suvda xavfsizlik ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha yagona yondashuvni joriy etish lozimligi ta'kidlandi.

Shuningdek, bolalar o'rtasida suzish ko'nikmalarini rivojlantirish, suvda xavfsizlik madaniyatini shakllantirish va sohadagi mavjud muammolarni kompleks hal etishga qaratilgan dasturini amalga oshirish bo'yicha takliflar **jamoatchilik kengashi**

tomonidan ma'qullanib, tegishli normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish yuzasidan tavsiyalar berildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan bildirilgan taklif va mulohazalar, shuningdek jamoatchilik kengashi a'zolarining muhokamalaridan kelib chiqib, yig'ilish

qaror qiladi:

1. Bolalar o'rtasida suzish ko'nikmalarini rivojlantirish, suvda xavfsizlik madaniyatini shakllantirish va suv ob'ektlarida xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish ma'qullansin.

2. Sport vazirligi ijro appati rahbari (**B.Hamraev**), strategik rejalashtirish va axborot tahlil bo'limi (**Sh.Sattorov**):

a) jamoatchilik kengashi muhokamasida bildirilgan taklif va mulohazalarni inobatga olgan holda, normativ-huquqiy hujjat loyihasini takomillashtirish hamda o'zbekiston respublikasi sport vaziri huzurida **taqdimot qilish**;

b) normativ-huquqiy hujjat loyihasini tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda ishlab chiqib belgilangan tartibda **O'zbekiston Respublikasi hukumatiga kiritish** choralarini ko'rish tavsiya etilsin.

3. **Jamoatchilik kengashi tomonidan** mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar va normativ-huquqiy hujjat loyihasining tayyorlanish jarayoni o'rganib borilsin hamda zarur hollarda tegishli tavsiyalar berilsin.

4. Strategik rejalashtirish va axborot tahlil bo'limi (**Sh.Sattorov**) mazkur normativ-huquqiy hujjat loyihasi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar to'g'risida jamoatchilik kengashiga axborot kiritib borish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish **jamoatchilik kengashi raisi** zimmasiga yuklatilsin.

Yig'ilish kotibi

N. Salomov

Sport vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining TARKIBI

T/r	F.I.O	–	Lavozimi
JAMOATCHILIK KENGASHI RAISI			
1.	TASHMATOV Sherzod Rixsibaevich	–	Milliy Olimpiya qo‘mitasi raisi o‘rinbosari, Taekvondo WT assotsiatsiyasi raisi
JAMOATCHILIK KENGASHI A‘ZOLARI			
2.	MAXSITOV Baxodir Maxsitovich	–	O‘zbekiston Sport faxriylari Kengashi raisi
3.	JURABOYEV Ibrohimjon Ilhomjon o‘g‘li	-	O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi Kengashi raisining birinchi o‘rinbosari
4.	TASHMATOV Xikmat O‘razali o‘g‘li	-	O‘zbekiston Milliy parolimpiya qo‘mitasi raisi o‘rinbosari
5.	TOJIYEV Bahodir Muhiddinovich	–	O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi boshqarma boshlig‘i
6.	RAFIEV Hamroqul Tolibovich	–	Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali professori
7.	ESHTAYEV Anvar Kurganovich	–	O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti professori
8.	KERIMOV Fikrat Azizovich	–	Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti professori
9.	AGZAMOV Bilol Xilalovich	–	Respublika o‘smirlar oliy sport mahorati maktabi direktori
10.	ADISMAN Dmitriy Aleksandrovich	–	O‘zbekiston Maxsus Olimpiadasi raisi
11.	SAYDULLAYEV Mirjalol Rustam o‘g‘li	–	Milliy Olimpiya qo‘mitasi Olimpiya sport turlari faoliyatini koordinatsiya qilish departamenti direktori v.v.b
12.	XIDIROV Davron Akramovich	-	O‘zbekiston Karlar sport federatsiyasi raisi
13.	ERGASHEV Otabek Maxmudovich	–	O‘zbekiston ko‘zi ojizlar sport federatsiyasi raisi
14.	IZRAILOVA Galina Vyacheslavona	–	O‘zbekiston Gimnastika federatsiyasi ijrochi direktori
15.	KARABAYEV	–	O‘zbekiston futbol assotsiatsiyasi Ijro nazorati va axborot tahlil bo‘limi boshlig‘i

	Murodjon Abduraxmanovich		
16.	MIRZAKULOV Baxtiyor Choriyevich	—	O'zbekiston huquqni muhofaza qilish organlarining qo'riqchiligi federatsiyasi raisi o'rinbosari
17.	MAMADALIYEV Abror Akbarjonovich	—	Respublika olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi direktori
JAMOATCHILIK KENGASHI KOTIBI			
18.	SALOMOV Nurbek Normurodovich	-	Sport vazirligi Axborot xizmati rahbari